



PAPER

O'ZBEKISTON MILLIY ARXITEKTURASI AN'ANALARI ASOSIDA MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARINI ARXITEKTURAVIY TAKOMILLASHTIRISH

Abdumannopova Shaxzoda Taxirjanovna¹

¹Toshkent davlat arxitektura qurilish universiteti 1 kurs magistranti

* shaxzoda.usmonova@gmail.com

Abstract

Mazkur maqolada O'zbekiston milliy arxitektura an'analari asosida maktabgacha ta'lim muassasalarini arxitekturaviy takomillashtirish masalalari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi — tarixiy-me'moriy tamoyillarni zamonaviy pedagogik, sanitariya-gigiyenik va ekologik talablar bilan integratsiyalash orqali bolalar uchun funksional, xavfsiz va estetik jihatdan mukammal muhit yaratish modelini ishlab chiqishdan iborat. Natijada ichki hovli tizimi, ayvonli yarim ochiq makonlar va milliy ornamentlarning soddalashtirilgan talqini maktabgacha ta'lim muassasalari arxitekturasini takomillashtirishning samarali yo'nalishi ekanligi asoslaydi.

Key words: milliy arxitektura, maktabgacha ta'lim muassasasi, ichki hovli, ayvon, ekologik barqarorlik, pedagogik muhit.

Kirish

Maktabgacha ta'lim muassasalari bolalarning dastlabki ijtimoiylashuvi, estetik didi va fazoviy tafakkurini shakllantiruvchi muhim arxitekturaviy muhit hisoblanadi. Zamonaviy loyihalash amaliyotida tipik rejalashtirish sxemalari keng qo'llanilayotgan bo'lsa-da, milliy me'moriy an'analarning fazoviy va iqlimiy imkoniyatlari yetarli darajada inobatga olinmayapti degan fikirdaman. O'zbekiston hududida shakllangan

tarixiy me'moriy tajriba, xususan Buxoro va Xiva shaharlaridagi an'anaviy turar joy arxitekturasini ichki hovli-kompozitsion tizimi, ayvonlari va tabiiy shamollatish usullari bilan ajralib turadi. Ushbu tajriba zamonaviy ta'lim muassasalari arxitekturasini takomillashtirishda muhim metodologik asos bo'la oladi. Milliy me'morchilik nafaqat estetik qiymatga ega, balki u xalqning tarixiy, madaniy va iqlimiy tajribasini o'zida mujassam etgan. Shuning uchun maktabgacha ta'lim muassasalarini loyihalashda milliy

Compiled on: May 8, 2026.

Copyright: ©2026 by the authors. Submitted to Advances in Science and Education for possible open access publication under the terms and conditions of the [Creative Commons Attribution \(CC BY\) 4.0 license](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/).


elementlardan foydalanish bolalarning milliy ruhda tarbiyalanishiga ham xizmat qiladi. Quyidagi ilmiy tadqiqotni amalga oshirish jarayonida tarixiy-tipologik tahlil, qiyosiy tahlil, fazoviy-kompozitsion modellashtirish hamda amaldagi qurilish me'yorlari asosida baholash metodlari qo'llanildi. Shu bilan birga, milliy turar joy me'morchiligi kompozitsion tamoyillarini tahlil qilindi.

Asosiy qisim

Milliy arxitektura an'analarning xususiyatlari


O'zbekiston hududida shakllangan milliy arxitektura quyidagi asosiy jihatlari bilan ajralib turadi:

Ichki hovli tizimi asosida rejalashtirish



Ichki hovli an'anaviy turar joy arxitekturasining markaziy elementi bo'lib, quyidagi ustunliklarga ega: tabiiy yorug'lik va shamollatish; xavfsiz ochiq o'yin makoni; mikroiklimni barqarorlashtirish; ijtimoiy muloqot markazi sifatida xizmat qilish. Taklif etilayotgan modelda markaziy yashil hovli atrofida guruh xonalari halqa shaklida joylashtiriladi.


Ayvonli yarim ochiq makonlar



Ayvon elementi yozgi iqlim sharoitida samarali himoya vositasi hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ayvonli galereyalar yozgi mashg'ulotlar uchun qulay makon yaratadi shu bilan bir qatorda energiya sarfini ham kamaytiradi

hamda ichki va tashqi makon o'rtasida o'tish zonasi vazifasini bajaradi. Ayvonlar orqali bolalar yozgi issiqdan himoyalanaadi, shu bilan birga ochiq havoda mashg'ulotlar o'tkazish imkoniyati yaratiladi.

Milliy bezak va estetik muhit



Milliy ornamentlarning soddalashtirilgan talqinini ham qo'llash bolalarda estetik didni rivojlantiradi, vizual tafakkurni shakllantiradi va madaniy identifikatsiyani mustahkamlaydi. Bu elementlar qadimiy uy-joy va jamoat binolarida keng qo'llanilgan bo'lib, hozirgi zamon arxitekturasida ham ularni qayta talqin qilish mumkin. Milliy naqshlar va ornamentlardan foydalanish bolalarda estetik didni shakllantiradi. Biroq ranglar haddan tashqari yorqin emas, balki pastel va yumshoq bo'lishi maqsadga muvofiq.

Hamda to'g'ri material tanlash ham muhim. Tabiiy materiallardan foydalanish ekologik jihatdan foydali va sog'lom muhit yaratadi. Shu bilan bir qatorda Oddiy geometrik shakllar asosida, lekin milliy ruhni aks ettiruvchi fasadlar yaratish mumkin. Masalan, ravoq elementlari zamonaviy uslubda qayta ishlanishi mumkin. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, milliy arxitektura elementlarini zamonaviy normativ talablar bilan uyg'unlashtirish orqali funksional, ekologik va pedagogik jihatdan samarali muhit yaratish mumkin. Ichki hovli tizimi va ayvonli kompozitsiya energiya samaradorligini oshiradi, bolalar uchun xavfsiz va qulay muhitni ta'minlaydi.

Muammolar va takliflar

Maktabgacha ta'lim muassasalarini arxitekturaviy loyihalash amaliyotini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, mazkur sohada bir qator tizimli va konseptual muammolar mavjud. Eng avvalo, mavjud loyihalarning aksariyati tipovoy (standartlashtirilgan) yechimlar asosida amalga oshirilayotganligi sababli, ular konkret hududning iqlimiy, ijtimoiy-madaniy va tarixiy xususiyatlarini

yetarli darajada aks ettirmaydi. Natijada, bunday binolar funksional jihatdan ma'lum talablarni qondirgan taqdirda ham, ularning me'moriy-badiiy ifodasi sust, muhit bilan uyg'unligi esa cheklangan holda namoyon bo'ladi.

Shu bilan birga, milliy arxitektura an'alaridan foydalanish jarayonida ularning chuqur semantik va funksional mohiyati yetarlicha ochib berilmayotgani kuzatiladi. Amaliyotda milliy elementlar ko'proq dekorativ vosita sifatida qo'llanilib, ularning iqlimiy moslashuvchanlik, tabiiy shamollatish, soyalanish kabi muhim funksional imkoniyatlari inobatga olinmayapti. Bu esa milliy me'morchilikning haqiqiy salohiyatidan to'liq foydalanilmayotganini anglatadi. Bundan tashqari, maktabgacha yoshdagi bolalarning psixofiziologik xususiyatlari va idrok etish jarayonlari arxitekturaviy muhitni shakllantirishda yetarli darajada hisobga olinmayapti. Xususan, ranglar gammasi, fazoviy tashkil etilish, miqyos va shakllarning bolalar psixikasiga ta'siri chuqur ilmiy asosda tahlil qilinmasdan loyihalash jarayoniga tatbiq etilmoqda. Natijada, ayrim hollarda yaratilgan muhit bolalarning erkin rivojlanishi, ijodiy faolligi va emotsional holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Yana bir dolzarb muammo sifatida ekologik va energetik samaradorlik masalalarining yetarli darajada e'tiborga olinmayotganini ta'kidlash lozim. Qurilish jarayonida zamonaviy energiya tejankor texnologiyalar, qayta tiklanuvchi energiya manbalari hamda ekologik toza materiallardan foydalanish darajasi nisbatan past bo'lib qolmoqda. Bu esa nafaqat iqtisodiy samaradorlikka, balki bolalar salomatligiga ham bevosita ta'sir etuvchi omil hisoblanadi. Yuqorida qayd etilgan muammolarni bartaraf etish maqsadida bir qator ilmiy-amaliy takliflarni ilgari surish mumkin. Avvalo, maktabgacha ta'lim muassasalarini loyihalashda hududiy yondashuv tamoyilini keng joriy etish zarur. Bunda har bir loyiha konkret joyning iqlimiy sharoiti, landshaft xususiyatlari va milliy-madaniy kontekstini chuqur tahlil qilish asosida ishlab chiqilishi lozim. Tipovoy loyihalardan voz kechib, moslashuvchan va individual arxitekturaviy yechimlarga ustuvorlik berish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, milliy arxitektura elementlarini zamonaviy talablarga mos ravishda qayta talqin

qilish zarur. Masalan, an'anaviy ichki hovli, ayvon va ravoq kabi elementlarni innovatsion konstruktiv va muhandislik yechimlari bilan uyg'unlashtirish orqali ularning funksional samaradorligini oshirish mumkin. Bu esa bir tomondan milliylikni saqlab qolish, ikkinchi tomondan esa zamonaviy qulayliklarni ta'minlash imkonini beradi.

Loyihalash jarayonida bolalar psixologiyasi va pedagogik yondashuvlarga asoslangan muhit yaratish konsepsiyasini joriy etish ham muhim hisoblanadi. Ranglar, shakllar va fazoviy kompozitsiyalarni tanlashda ilmiy asoslangan yondashuvlardan foydalanish, bolalar uchun qulay, xavfsiz va rag'batlantiruvchi muhitni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ekologik barqarorlik tamoyillarini keng joriy etish, energiya tejankor texnologiyalar va tabiiy materiallardan foydalanishni kengaytirish orqali zamonaviy, sog'lom va samarali arxitektura muhitini yaratish mumkin.

Umuman olganda, milliy arxitektura an'analari va zamonaviy innovatsion yondashuvlarning integratsiyasi asosida maktabgacha ta'lim muassasalarini loyihalashni takomillashtirish ushbu sohaning sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilishiga xizmat qiladi.

XULOSA

Milliy arxitektura an'analari asosida maktabgacha ta'lim muassasalarini arxitekturaviy takomillashtirish zamonaviy ta'lim infratuzilmasini rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishidir. Ichki hovli, ayvon va milliy bezak elementlarining integratsiyasi orqali funksional, estetik va ekologik jihatdan barqaror ta'lim muhiti shakllantiriladi. Milliy ruhdagi bog'chalar bolalarda o'zlikni anglash, madaniyatga hurmat va estetik didni shakllantirishga yordam beradi.

Zamonaviy texnologiyalar va xalqaro tajribani milliy me'morchilik bilan uyg'unlashtirish orqali kelajak avlod uchun qulay, xavfsiz va ilhomlantiruvchi muhit yaratish mumkin.

REFERENCES

1. Qodirov T.Q. O'zbekiston me'morchiligi tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 2010.
2. Mirzayev Sh.R. Milliy me'moriy an'alar va zamonaviy arxitektura. – Toshkent: Fan, 2015.

3. Ikromov L.Yu. Maktabgacha ta'lim muassasalarini loyihalash asoslari. – Toshkent, 2018.
4. QMQ 2.08.02–09. Jamoat binolari va inshootlari. – Toshkent, 2009.
5. SanPiN № 0341–17. Maktabgacha ta'lim muassasalari uchun sanitariya talablari. – Toshkent, 2017.
6. Ching F.D.K. Architecture: Form, Space, and Order. – New York: Wiley, 2014.
7. Rapoport A. House Form and Culture. – New Jersey: Prentice-Hall, 1969. chki hovli konsepsiyasini qo'llash orqali bolalar uchun xavfsiz va ochiq o'yin maydonlari tashkil etish mumkin. Bu yechim bolalarning tabiat bilan aloqasini mustahkamlaydi.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishga oid qarorlari va farmonlari.
9. Dudek M. Kindergarten Architecture: Space for the Imagination. – London, 2012.
10. Internet manbalari: www.archdaily.comwww.dezeen.comwww.unicef.org (bolalar muhitiga oid materiallar)